

Ya'qubning huzurida



18:30 / 14.06.2019 2768

21

Akalar otalarining oldiga qanday qilib qaytib boramiz, deb hayron bo'ldilar.

Ular otalariga nima deb aytishni o'yladilar.

Ular kechagina otalarini Yusuf xususida baxtsiz qilgan edilar. Endi bugun uni Binyamin bilan baxtsiz qiladilarmi?

Katta akalari Ya'qubning oldiga borishdan bosh tortib, inilariga: «**Otangizning oldiga qaytinglar, bas, unga: «Ey otamiz, haqiqatda o'g'ling o'g'rilik qildi. Biz faqat o'zimiz bilgan narsaga guvohlik berdik, xolos. Biz g'aybni biluvchi emas edik denglar»**, dedi.

Ya'qub bu voqeani eshitgach, bunda Allohning «qo'li» borligini va Alloh uni imtihon qilayotganini bildi. Kecha Yusuf bilan sinagan edi, bugun esa Binyamin bilan sinamoqda.

Albatta, Alloh unga ikki musibatni jamlamaydi. Albatta Alloh uni ikki o'g'li xususida baxtsiz qilmaydi. Albatta, Alloh uni Yusuf va Binyamindek ikki o'g'li bilan bebaxt qilmaydi.

Albatta, bu ishda Allohning yashirin qo'li bor edi.

Albatta, bu ishda Allohning yashirincha hikmati bor edi.

Albatta Alloh bandalarini imtihon qiladi. So'ngra ularni xursand qilib, ularga ne'mat ato qiladi.

Keyin katta o'g'il Misrda qolib, Kan'onga qaytishdan bosh tortdi. Endi uchinchi farzandida ham qiynaladimi? Bundan oldin ikki musibatda qiynalgan edi-ku? Albatta, bu bo'lmaydi.

Shu erda Ya'qub xotirjam bo'ldi va: **«Shoyadki, Alloh ularning hammasini huzurimga jamlab keltirsa. Albatta, Uning O'zi bilguvchi va hikmatli zotdir»**, deb aytdi.